

## JANUBIY VILOYATLAR AHOLISINI IJTIMOY HIMOYA QILISH BORASIDAGI O‘ZGARISHLAR VA INSON QADRINI YUKSALTIRISH OMILLARI

Kadirova Yakitjan Buvabaevna

*Toshkent davlat pedagogika universiteti v.b. dotsenti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada janubiy viloyatlar aholisini ijtimoiy himoya qilish borasidagi o‘zgarishlar va inson qadrini yuksaltirish, janubiy viloyatlarda ta’lim tizimidagi islohotlar haqida so‘z yuritiladi*

**Kalit So‘Zlar:** *ijtimoiy himoya, aholi farovonligi, ta’lim, madaniyat, tibbiy xizmat ko‘rsatish, iste’mol*

### KIRISH

Ijtimoiy himoya - keng ma’noda — mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy choratadbirlar majmui; tor ma’noda — davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’minlanmagani tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rliqi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta’minlash, aholi qatlamlarining ta’lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta’minlashga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo‘nalishlari: erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishni ta’minlash; ish bilan bandlik, kasb tanlash, o‘qish va bilim olish; daromadlarning kafolatlanishi; har bir fuqaroning o‘z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo‘lishi; iste’molchilar himoyasi, iste’molchilar jamiyatlari; tovarlar va xizmatlar sifati, iste’mol kafolatini ta’minlash; aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish; ijtimoiy ta’minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta’minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi 20-asrning 20-yillaridan boshlab shakllana boshladi. 90-yillarga kelib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda yangidan shakllandi. Ayniqsa, milliylik, o‘zlikni anglash, e’tiqod va an’analarning tiklanishi ijtimoiy himoya tizimiga muhim yangilik bo‘lib qo‘shildi.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo‘nalishlardan biriga, ya’ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. Mamlakatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti barpo qilishda davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya siyosati olib borilmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosat O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘lining yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Respublikada ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratildi, unga qonuniy asos solindi. Ijtimoiy himoya tamoyillari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o‘z aksini topdi. Mamlakatda daromad olishning kafolatlanishi amalga oshirildi. Keng miqyosda yangi ish joylari yaratilishi aholini ish bilan ta’minlash ishsizlik muammosini hal qilmoqda (mamlakatda ishsizlikning statistik ko‘rsatkichi — 0,5—0,6%). Bunda, ayniqsa, kichik va o‘rta

biznesni rivojlantirish, kasanachilik qo‘l kelmoqda. Tovarlar sifati, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iste‘molchilar himoyasini shakllantirib, aholi manfaatlarini ta‘minlamoqda. Inflyatsiyaning oldini olish, so‘mning xarid kuchini saqlash, biznes-tijorat ustidan davlatning maromiy nazoratini o‘rnatish, marketing, savdo, reklama kabilarni tartiblashtirish ijtimoiy himoyani rivojlantirmoqda. Ekologiya bilan bog‘liq bir qancha katta himoyalash ishlari amalga oshirilib, suv, havo, yer va mahsulot tozaligiga erishilmoqda.

O‘qish, bilim olish, kasb tanlash O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlashning milliy dasturi asosida tubdan yangilanmoqda. Ta’limga ajratilgan mablag‘lar keyingi 7 yil (1995—2002-yillar) ichida yiliga yalpi ichki mahsulotning 7,1—7,76% ini, ajratilgan mablag‘ byudjet xarajatlarining 21,77—24,12%ini tashkil etdi. Bu dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Tibbiyotda o‘tkazilayotgan islohotlar natijasida aholiga sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatiladigan xizmatlar samaradorligini ko‘tarish choralari amalga oshirildi. Inflyatsiyaga qarshi choralar ham ijtimoiy himoyada muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda uning o‘rnini to‘la qoplash mumkin bo‘lmasa ham zarar kuchini pasaytirish maqsadida ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdori oshirilmoqda (1998-yilda - 50%, 2000-yilda - 60% va 2002-yilda - 30%).

Pedagogika sohasidagi yangilanishlar o‘z o‘rnida ta’limni isloh qilish va sog‘lomlashtirish jarayoniga asos bo‘ldi.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari xalq ta’limi tizimida ham O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, xalq ta’limi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilish yuzasidan chiqarilgan farmonlarni bajarilishi, byudjetdan ajratilgan pul mablag‘larini to‘liq o‘zlashtirish va xalq xo‘jaligi rejalarini bajarilishini ta‘minlash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

1991-1992 o‘quv yilida Qashqadaryo viloyatida 917 ta umumta’lim maktablar bo‘lib, shundan 822 tasi qishloqlarda faoliyat ko‘rsatdi. Viloyatda o‘quvchilar soni 429629 nafarni tashkil etib, ulardan 337982 nafari qishloqlar hisobiga to‘g‘ri keldi. Surxondaryo viloyatida esa jami 677 ta umumta’lim maktablari faoliyat ko‘rsatib, ularda 332965 nafar o‘quvchi ta’lim olib, shundan 626 tasi qishloq joylarda joylashdi va ularda o‘quvchilar soni 286855 nafarni tashkil etdi. Shuningdek, bu davrda Qashqadaryo viloyatida 11 ta, Surxondaryo viloyatida 7 ta boshlang‘ich maktablari faoliyat ko‘rsatdi. Raqamlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, janubiy viloyatlarda faoliyat ko‘rsatgan maktablar asosan qishloq joylarda faoliyat olib bordi. Bu o‘z o‘rnida qishloq umumta’lim tizimini mustahkamlash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Keyingi yillarda janubiy viloyatlarda umumta’lim maktablari soni ortib bordi. Masalan, 1992 yil ikkinchi yarmida Qashqadaryo viloyatida umumta’lim maktablari 943 taga yetdi. Shundan Qarshi shahrida 37 ta, Nishon tumanida 28 ta, Yakkabog‘ tumanida 90 ta va Chiroqchi tumanida 138 ta edi. Shuningdek, viloyat o‘quvchilarining ko‘pi ham Chiroqchi tumaniga to‘g‘ri kelib, bu ko‘rsatkich 52974 nafarni tashkil etdi. Viloyatda o‘rtacha bitta sinfda 22-24 o‘quvchi ta’lim oldi. Bu Koson shaharida 29,5 nafar bo‘lsa, Dehqonobod tumanida 16,4 ta o‘quvchiga to‘g‘ri keldi. Demak, tahlillar shundan dalolat beradiki, ta’lim tarmog‘i asosan qishloq va tumanlarda kengayib borganligi kuzga yaqqol tashlanadi.

1991 yil O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi bir joyda qotib qolgan umumta’lim maktablari tizimida jonlantirish paydo qildi. O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi 1992 yil 2 iyulda “Ta’lim to‘g‘risida” Qonunga muvofiq gimnaziyalar, litseylar tashkil etish yo‘lga qo‘yildi. Maktab va maorif sohasida qilingan bu islohot uzoq yillik iqtidorli yoshlarga bo‘lgan tashnalikni qondirish uchun qo‘yilgan qadam edi. Ushbu qonun asosida Qarshi tumanida dastlabki urinishlar ko‘zga tashlandi. 1993-94 o‘quv yilida tumandagi Behbudiy nomli maktab huzurida shu maktab ilmiy bo‘lim mudiri, filolog Egamberdi Ergashevning sa‘y-harakati va tashabbusi bilan o‘zbek tili va adabiyoti hamda fizika-matematika fanlarini chuqur o‘rganuvchi litsey sinflar tashkil etildi. 1994-95 o‘quv yilida mazkur litsey sinflarini 42 talaba tugatgan bo‘lsa, shundan 20 ta talaba test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilindi. 1995 yil sentabrda tuman hokimligining qarori bilan litsey-internat tashkil etildi. O‘quvchilar bepul ovqat va yotoqxonaga bilan ta‘minlandi. O‘qituvchilarga 65 foiz qo‘shimcha ish haqi ajratildi. 1995-96 o‘quv yilida litseyini 42 talaba tamomlagan bo‘lsa, shundan 36 nafari turli oliy o‘quv yurtlariga qabul qilindi. 1996-97 o‘quv yilida 47 talabadan 39 nafari, 1997-98 o‘quv yilida esa 50 talabadan 41 nafari oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirdi.

### XULOSA

Mamlakatimizda, ijtimoiy himoya tizimining yagona konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unda Respublikada mavjud bo‘lgan ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam, pensiya ta‘minoti, bolalarga nafaqa to‘lash, yolg‘iz keksalarga xizmat ko‘rsatish, nogironlarni protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari bilan ta‘minlash, shuningdek, tibbiy, mehnat va ijtimoiy jihatdan tiklash, tibbiy xizmat, ishsizlarni ishga joylashtirish va moddiy yordam berish, bir yo‘la (nomuntazam) yordam tizimlari asoslarida amalga oshirilishi belgilangan.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muxtor Rasulov. Inson taraqqiyoti to‘g‘risida ma’ruza. [O‘zbekiston - 2000], T., 2001.
2. Bekmurodov M., Akhmedova F., Kadirova K. Study the process of harmonization formation of personal and professional qualities at students //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. 51. – C. 597-605.
3. Kadirova Yakitjan Buvabaevna, Kadirova Khalima Buvabaevna. METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF LEGAL IMMUNITY OF STUDENTS ON THE BASIS OF A SUBJECT-ETHICAL APPROACH. Journal of Pharmaceutical Negative Results. 2022/12/23. Pp.6480-6487. DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S09.771>
4. Y Kadirova, K Kadirova SOCIAL ACTIVITY OF PEDAGOGUE IN SOCIO-POLITICAL LIFE OF SOCIETY//Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B3. – Pp. 417-421
5. A‘zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog‘liq tushunchalarning nazariy tahlili <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533> vol. 2 no. 20 (2023): pedagogical sciences and teaching methods 247-254–bet

6. A'zamxonov S.X. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272> vol. I no. 12 (2022): o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 453-459-bet
7. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – T. 8. – №. 5. – С.
8. Kh Kadirova. PRESERVATION OF LANGUAGE, HISTORY AND NATIONAL IDENTITY IN THE AGE OF GLOBALISM //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – Pp. 1363-1367
9. Buvabaevna, K. H., & Medetovna, A. F. DEVELOPMENT AND PRESERVATION OF KARAKALPAK ETHNIC CULTURE. Multidisciplinary Approaches in the Current Times, 63.
10. КАДИРОВА, Х. (2015). Нравственное воспитание. ФЭН-наука, (5), 41-42.